

«Boyib keting!» aksiyasining Qoidalari va shartlari

«Boyib keting!» aksiyasi (matnda keyingi o‘rinlarda – Aksiya) «COSCOM» MChJ (matnda keyingi o‘rinlarda – Operator) aloqa tarmog‘ining xizmat qilish hududida o‘tkaziladi.

Aksiyaning o‘tkazilish muddati: 2022-yil «01»-may (Toshkent vaqti bilan 00:00:00)dan 2023-yil «30»-aprel (Toshkent vaqti bilan 23:29:59)gacha.

Aksiyada ishtirok etishning mazkur qoidalari (matnda keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) «COSCOM» MChJ bilan aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma (matnda keyingi o‘rinlarda – Shartnoma) tuzgan Aksiya ishtirokchilari – jismoniy shaxslar (matnda keyingi o‘rinlarda – Abonentlar)ga yo‘llangan Oferta hisoblanadi.

Qoidalarda qo‘llanuvchi atamalar, agarda mana shu Qoidalarda boshqasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmagan bo‘lsa, Shartnomada qo‘llangan atamalarga mos keladi.

1. Aksiyaning tashkil etilishi

1.1. Aksiya tashkilotchisi: «ArBoost» MChJ (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi).

1.2. «Boyib keting!» aksiyasi – bu Operatorning Abonentlariga Tashkilotchi tomonidan taqdim etiluvchi xizmat bo‘lib, uning doirasida Abonentlar Viktorina bo‘yicha bergan to‘g‘ri javoblari evaziga ballar oladilar va eng ko‘p miqdorda ballar to‘plagan Abonentlar sovrinlarga ega bo‘ladilar. Mazkur aksiya lotereya yoki qimor o‘yini hisoblanmaydi.

1.3. «Boyib keting!» Viktorinasi – bu «Boyib keting!» aksiyasi doirasida Operatorning Abonentlariga Tashkilotchi tomonidan taqdim etiluvchi xizmat bo‘lib, abonentlarga turli sohalar bo‘yicha o‘z bilimlarini sinab ko‘rish hamda savollarga javoblarni to‘g‘ri va eng tez taqdim etgan holda sovrin olish uchun bellashish imkonini beradi. Mazkur Viktorina lotereya yoki qimor o‘yini hisoblanmaydi. Viktorinada ishtirok etishdan maqsad abonentning turli bilim sohalarini bo‘yicha savollarga javob berish yo‘li bilan o‘z zakovatini tekshirishidir.

2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. Aksiya ishtirokchisi – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, 18 (o‘n sakkiz) yoshga to‘lgan, Operator Abonenti bo‘lgan va Aksiyada ishtirok etish uchun zarur shartlarni bajargan, muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

2.2. Abonentlar kuniga 1684 so‘m narxidagi «Boyib keting!» Viktorinasi xizmatiga obuna bo‘ladilar. Viktorina doirasida ishtirokchi-abonentlar har kuni 9 ta savol oladilar.

Aksiyada ishtirok etish uchun quyidagilar zarur:

Aksiyaning «5050» Raqamiga istalgan matnli SMS-xabar yuborish yoki *676*1#, *676*2#, *676# buyruqlarini terish yo‘li bilan, yoxud win.ucell.uz saytida «Boyib keting!» Viktorinasi xizmatiga ulanish.

2.2. Tashkilotchining, Operatorning hamda Aksiyaning o'tkazilishiga texnik ko'mak ko'rsatuvchi kompaniyalarning ishchilari va vakillari, shuningdek kompaniyalarning shunday ishchilari va vakillarining oila a'zolari Aksiyada ishtirok eta olmaydi.

2.3. Aksiyada ishtirok etishda Ishtirokchilarga quyidagilardan foydalanish taqiqlanadi:

- Operator SIM-kartasi qo'yilgan, mobil telefon bo'lgan abonent qurilmasi (matnda keyingi o'rinlarda – Mobil telefon)dan boshqa har qanday uskuna;
- Tashkilotchi va/yoki Operator tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy vositalardan tashqari har qanday, shu jumladan Mobil telefonga o'rnatilgan dasturiy vositalar;
- Aksiyada ishtirok etishga mo'ljallab Tashkilotchi va/yoki Operator tomonidan ishlab chiqilgan, ammo har qanday usul bilan, shu jumladan dasturiy kodini o'zgartirish vositasida o'zgartirilgan dasturiy vositalar;
- Aksiyani hujjatlashtirish uchun Tashkilotchi va/yoki Operator tomonidan qo'llanuvchi texnik tizim ma'lumotlari (loglar) bo'yicha aniqlanuvchi Aksiyada ishtirok etish jarayonini avtomatlashtirishning har qanday boshqa usul va vositalari. Mazkur texnik tizimlar yakuniy deb tan olinadi va ular borasida Ishtirokchidan e'tirozlar qabul qilinmaydi. Aksiyada ishtirok etish jarayonini avtomatlashtirish belgilari – javoblar davriyligida muayyan qonuniyatga asoslanganlik, savolga javobni 5 (besh) soniyadan oldin yuborish va boshqa belgilardir.

2.4. Mazkur Qoidalarning 2.3-bandini buzgan Ishtirokchilar Aksiyada ishtirok etish huquqidan mahrum etiladi, ularning Aksiya doirasida to'plagan barcha ballari bekor qilinadi, mazkur Ishtirokchi esa sovrinni olish huquqidan mahrum etiladi.

3. Aksiyada ishtirok etish tartibi

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Abonent quyidagilarni bajarishi lozim:

Aksiyaning «5050» Raqamiga SMS-xabar yuborish yo'li bilan, win.ucell.uz saytida yoki @UcellQuizBot Telegram-boti orqali «Boyib keting!» Viktorinasi xizmatiga ulanish. Har kuni ilk savolni olganida Abonentga 200 bonus balli beriladi.

3.2. «Boyib keting!» Viktorinasi xizmatiga obuna narxi – kuniga QQS bilan 1684 so'm. Ishtirokchi tomonidan Mobil telefondan Aksiyaning «5050» Raqamiga yuboriladigan SMS-xabarlar narxlanmaydi.

3.4. «Boyib keting!» Viktorinasi xizmatiga obunani bekor qilish uchun Aksiyaning «5050» Raqamiga «STOP» matnli SMS-xabar yuborish yoki *676*0# raqamini terish, yoxud @UcellQuizBot Telegram-boti orqali obunani o'chirish lozim.

3.5. Aksiyaning «5050» Raqamiga yuborilgan birinchi SMS-xabariga javoban Ishtirokchi o'zi ulangan Xizmat, Aksiya nomi, o'tkazilishining qisqacha shartlari haqidagi ma'lumotlarni hamda mazkur Qoidalariga eltuvchi havolani oladi. Qo'shimchasiga Ishtirokchi «Boyib keting!» Viktorinasi xizmati bo'yicha birinchi savolni va javob variantlarini oladi.

3.6. «Boyib keting!» Viktorinasi xizmati savollariga javoblar Ishtirokchi tomonidan Aksiyaning «5050» Raqamiga, yoki win.ucell.uz saytiga, yoxud @UcellQuizBot Telegram-boti orqali yuboriladi.

3.7. «Boyib keting!» Viktorinasi xizmati savoliga javobini yuborgan har bir SMS-xabarga javoban, oldingi savolga javob to'g'ri bo'lgan-bo'lmaganligi haqidagi ma'lumotni va «Boyib keting!» aksiyasining keyingi savolini SMS-xabar tarzida oladi.

3.8. Ishtirokchida «Boyib keting!» Viktorinasi xizmati ulangan bo'lsa, unga «Boyib keting!» Viktorinasi xizmati savollari har kuni 10:00:00 dan to 23:29:59 gacha bo'lgan davrda yuboriladi.

Viktorinada win.ucell.uz sayti yoki @UcellQuizBot Telegram-boti orqali ishtirok etilganida, savollar endi SMS-xabar ko'rinishida yuborilmaydi va faqat win.ucell.uz veb-sayti doirasida yoki Telegram messenjeri vositasida taqdim etiladi.

3.9. Soat 23:30:00 da joriy kun yakunlari chiqariladi. Tegishli sovrin turi uchun ball to'plash qoidalariga muvofiq hammadan ko'p ball to'plagan ishtirokchi Aksiyaning joriy kuni G'olibi deb e'lon qilinadi, bu haqda Ishtirokchining o'ziga SMS-xabar yuboriladi.

3.10. Sovrinni topshirish jarayoni hamda talab etiluvchi hujjatlar haqida batafsilroq ma'lumot olish uchun G'olib uccl@arboost.com elektron pochta orqali Tashkilotchi bilan bog'lanishi lozim.

4. Aksiyaning o'tkazilishi va Ishtirokchilar ballarini hisoblash tartibi

4.1. Abonentlar quyidagi harakatlari uchun ballar oladilar:

- «Boyib keting!» Viktorinasi xizmati doirasida har bir to'g'ri javob uchun Ishtirokchi 200 ball oladi. Har bir noto'g'ri javob uchun – 0 ball. Savollarning eng ko'p miqdori sutkasiga 9 savoldan oshmaydi;

- Har kuni «Boyib keting!» Viktorinasi xizmatiga obuna to'lovi amalga oshirilganidan so'ng har bir ishtirokchi 200 ball oladi.

4.2. Aksiya ishtirokchisi istalgan paytda o'zi to'plagan ballari miqdorini va joriy kun reytingidagi o'z o'rnini bilishi mumkin, buning uchun Aksiyaning «5050» Raqamiga TOP (yoki ТОП) so'zini SMS-xabar tarzida jo'natishi yoxud win.ucell.uz saytidan ko'rishi lozim.

4.3. Aksiyaning tegishli kundagi yakunlari chiqarilganidan so'ng barcha ballar navbatdagi kunga ko'chirib o'tkazilmaydi, lekin oylik sovrinlar G'olibini aniqlash uchun hisobga olinadi.

5. G'oliblarni aniqlash va sovrinlarni topshirish

- Kunlik sovrin – 500 000 so'm.

- Oylik sovrin – 10 000 000 so'm.

5.1. Aksiyaning Kunlik sovrini G'olibini aniqlash har kuni soat 23:29:59 holatiga ko'ra o'tkaziladi, kalendar oyining oxirgi kunlari bundan mustasno.

Joriy kunning eng ko'p ballarini to'plagan ishtirokchi quyidagi formula bo'yicha g'olib deb topiladi:

Foydalanuvchi reytingi = $B + 1/T$

Bunda:

B – Viktorinadagi ishtirok uchun ballar

T – Abonent savollarga javob berishining umumiy vaqti (millisoniyalar).

Agar bir nechta abonent bir xil miqdorda ball to'plasa, ushbu miqdordagi ballarni kun davomida birinchi bo'lib to'plagan ishtirokchi g'olib deb tan olinadi.

5.2. Har oylik aksiya sovrinlari g'oliblarini aniqlash 2022-yil 31-may, 2022-yil 30-iyun, 2022-yil 31-iyul, 2022-yil 31-avgust, 2022-yil 30-sentabr, 2022-yil 31-oktabr, 2022-yil 30-noyabr, 2023-yil 31-yanvar, 2023-yil 28-fevral, 2023-yil 31-martda amalga oshiriladi.

Kalendar oyi davomida eng yaxshi 6 kunlik natijalar yig'indisi bo'yicha eng yuqori reytingga ega bo'lgan Ishtirokchi G'olib va sovrin sohibi bo'ladi.

5.3. Aksiyaning o'tkazilishi davrida Ishtirokchi, mazkur Qoidalariga muvofiq, cheklangan marta Aksiya G'olibi deb tan olinishi mumkin.

- Abonent Aksiyaning Kunlik sovrini G'olibi deb 12 oy mobaynida ko'pi bilan 1 (bir) marta tan olinishi mumkin;
- Abonent Aksiyaning Oylik sovrini G'olibi deb 12 oy mobaynida ko'pi bilan 1 (bir) marta tan olinishi mumkin.

G'oliblik/sovrinni olish faktining aniqlanishi quyidagicha amalga oshiriladi:

- a) Abonent ishtirok etgan va g'olib bo'lgan abonent raqami (telefon raqami) bo'yicha;
- b) Ishtirokchining F.I.O. hamda tug'ilgan sanasi bo'yicha (hatto agar bu Ishtirokchi o'z nomiga rasmiylashtirilgan boshqa abonent raqamidan Aksiyada avval qatnashib, sovrin olgan bo'lsa ham);
- c) SIM-kartasi qo'yilgan abonent qurilmasining IMEI-kodi bo'yicha, hatto agar SIM-karta boshqa abonent nomiga rasmiylashtirilgan bo'lsa ham.

5.4. Aksiya G'oliblariga beriladigan pul sovrinlari G'olibning O'zbekiston Respublikasi hududidagi bankda ochilgan hisob raqamiga o'tkazib beriladi. Hisob raqamining egasi mazkur Qoidalariga muvofiq Aksiya G'olibi deb tan olingan Ishtirokchi bo'lishi lozim. G'olib tomonidan mazkur Qoidalariga muvofiq barcha hujjatlar taqdim etilganida, pul sovrinlarining o'tkazib berilishi yutuqli o'yin bo'lib o'tgan kalendar oyidan keyingi 30 (o'ttiz) ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Pul sovrini naqd pul mablag'lari ko'rinishida berilmaydi.

5.5. O'zbekistonning soliqlar va yig'imlar haqidagi amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Tashkilotchi G'olib haqidagi va sovrin hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston soliq xizmati idoralariga taqdim etadi. Aksiya G'oliblari Aksiyadagi ishtiroklari uchun sovrinlar ko'rinishida daromad

olganliklari sababli, O'zbekistonning amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda, O'zbekistonning amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyatlarini oladilar. Shundan kelib chiqib Tashkilotchi (yoki uning vakili) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, G'olibning agenti sifatida harakat qilib, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JSODS) miqdorini amaldagi qonunchilikda o'rnatilgan stavka bo'yicha hisoblab chiqadi va G'olibga to'lanishi kerak bo'lgan sovrin miqdoridan ushlab qoladi. Soliq miqdori tegishli budjetga G'olib nomidan Tashkilotchi (yoki uning vakili) tomonidan o'tkaziladi.

5.6. Qoidalarining 6.4-bandida ko'rsatilgan muddatda talab qilib olinmagan sovrinlar saqlanmaydi, berilmaydi va Aksiya Tashkilotchisi tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra ishlatiladi.

6. Aksiya Ishtirokchilarini xabardor qilish:

6.1. Aksiya G'olibi deb tan olingan Ishtirokchiga, yutuqli o'yin kunidan keyingi kuni, soat 23:30:00 dan 23:59:59 gacha bo'lgan davrda SMS-xabar yuborilib, sovrinni olish uchun kerak bo'luvchi hujjatlar haqida ma'lumot olish maqsadida soat 9:00 dan 22:00 gacha Tashkilotchi vakillari bilan bog'lanish so'raladi. Qo'shimcha tarzda Aksiya G'olibiga sovrinni olish uchun talab etiluvchi hujjatlar haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan SMS-xabar ham jo'natiladi.

6.2. Aksiya G'olibi Tashkilotchiga e-mail vositasida quyidagilarni taqdim etadi:

- pasportining jismoniy shaxs haqidagi umumiy ma'lumotlar (F.I.O., jinsi, tug'ilish sanasi va joyi, pasport berilgan sana, pasportni bergan idora, hujjatning seriya va raqami) aks etgan sahifasi skan-nusxasi;
- pasportining yashash/turish joyi bo'yicha ro'yxati haqidagi ma'lumot aks etgan sahifasi skan-nusxasi yoki yashash joyi bo'yicha ro'yxatini tasdiqlovchi hujjat kseronusxasi;
- STIR skan-nusxasi;
- agar STIR hujjatida ShJBPH (JShShIR) hisobi haqida ma'lumot bo'lmasa – ShJBPH skan-nusxasi;
- shaxsga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqishga rozilik tilxatining skan-nusxasi (G'olibga mazkur shakl Tashkilotchi tomonidan jo'natiladi);
- O'zbekiston Respublikasi hududidagi bankda ochilgan, G'olibga tegishli bo'lgan hisob raqami haqida ma'lumot (bankdan ma'lumotnoma). Hisob raqami haqidagi ma'lumot G'olibning hisob raqami ochilgan bank bo'limi tomonidan tasdiqlangan (ya'ni, bank muhri va mas'ul xodim imzosi qo'yilgan) bo'lishi lozim. Shuningdek, ma'lumotnomada bank rekvizitlari (BIK, STIR, vakillik hisobvarag'i) ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Ko'rsatilgan hujjatlar G'olib tomonidan Tashkilotchining elektron manziliga yuboriladi: ucell@arboost.com.

6.3. Qo'shimcha tarzda Tashkilotchi/Operator vakillari G'olib deb tan olingan Ishtirokchi bilan 3 (uch) kun davomida – Aksiyadagi ishtiroki doirasida Ishtirokchi SMS-xabarlar yuborgan telefon

raqami orqali bog‘lanadilar. Aksiya Ishtirokchisi G‘olib deb tan olingan kundan keyingi 3 (uch) kun mobaynida G‘olibga kamida 5 (besh) qo‘ng‘iroq amalga oshiriladi.

6.4. G‘olib o‘zining yutganligi haqida xabardor qilingan paytidan boshlab 15 (o‘n besh) kalendar kuni mobaynida kerakli hujjatlarni taqdim etishi lozim. Agarda G‘olib deb tan olingan Ishtirokchi ko‘rsatilgan muddat mobaynida Tashkilotchi/Operator bilan bog‘lanmasa va/yoki sovrinni olish uchun kerak bo‘luvchi ma‘lumotlarni taqdim etmasa, u sovrinni olish huquqidan mahrum bo‘ladi va mazkur huquq Reyting bo‘yicha yoki navbat bo‘yicha keyingi Foydalanuvchiga (Abonentga) o‘tadi, ammo ayni shu o‘yin davrida shu sovrinning o‘ziga bo‘lgan huquq 5 martadan ko‘p boshqa birovga o‘tmaydi. Ko‘rsatilgan muddatda talab qilib olinmagan sovrinlar to‘lab berilmaydi, G‘olib (Abonent) esa sovrinni talab qilish huquqini yo‘qotadi.

6.5. Aksiya Tashkilotchisi quyidagi hollarda Aksiya G‘olibiga sovrinni berishni rad etishga haqli:

- agar Aksiya G‘olibi telefon raqami ishlamayotganligi (Aksiya G‘olibining mobil telefoni o‘chirilgan yoki «COSCOM» MChJ aloqa tarmog‘ining xizmat qilish hududidan tashqarida bo‘lganligi) sababli mazkur Qoidalarda ko‘rsatilgan muddat mobaynida Tashkilotchi/Operator vakili Aksiya G‘olibi bilan bog‘lana olmasa;
- agar Aksiya G‘olibi Tashkilotchi/Operator vakiliga kerakli hujjatlarni taqdim etmasa yoki noto‘g‘ri ma‘lumotlarni va/yoki qalbaki hujjatlarni taqdim etsa. Operatorida yoki Aksiya Tashkilotchisida taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyiligiga shubhalar tug‘ilsa va/yoki G‘olib kerakli hujjatlarni shaxsan o‘zi taqdim etishdan bosh tortsa, Tashkilotchi/Operator O‘zbekiston Respublikasining vakolatli idoralariga murojaat qilish huquqiga ega;
- agar pul sovrinini yutgan G‘olib mazkur Qoidalarning 5.3-bandiga muvofiq joriy davrda Aksiya G‘olibi deb tan olingan bo‘lsa;
- agar Aksiya G‘olibining aloqa xizmatlari uchun Operatoridan qarzdorligi mavjud bo‘lsa. Yakunlarni chiqarishda Ishtirokchi shaxsiy hisobining Operator hisobidan aloqa xizmatlaridan foydalanish imkonini beruvchi har qanday chegirmalar va xizmatlardan xoli holdagi joriy balansi inobatga olinadi;
- agar G‘olib sovrinni olishdan o‘z ixtiyoriga ko‘ra voz kechsa.

Ko‘rsatilgan holatlarda sovrin talab etilmagan hisoblanadi va Tashkilotchi tomonidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra ishlatiladi.

7. Qo‘shimcha shartlar

7.1. Aksiyaning «5050» Raqamiga birinchi so‘rovni amalga oshirgan Aksiya Ishtirokchisi bu bilan Qoidalariga to‘liq va so‘zsiz roziligini tasdiqlaydi (Oferta aksept qilinishi); o‘zining 18 yoshga to‘lganini, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi ekanligini hamda Operator bilan tuzilgan Shartnoma bo‘yicha Abonent ekanligini, Ishtirokchining mazkur Qoidalarda keltirilgan boshqa mezonlariga mos kelishini kafolatlaydi.

7.2. Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Aksiyaning «5050» Raqamiga ilk so‘rovning yo‘llanishi mazkur Qoidalarning o‘zgarishlari va/yoki qo‘shimchalariga rozilikni ham ko‘zda tutadi.

7.3. Ushbu Qoidalar Tashkilotchining win.ucell.uz saytida e'lon qilingan paytdan kuchga kiradi va Tashkilotchi tomonidan o'zgartirilish yoki tugatilish paytigacha amalda bo'ladi. Aksiya ishtirokchilari mazkur Qoidalarning tugatilishi/o'zgartirilishi haqida shu o'zgarishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) kun oldin Tashkilotchining win.ucell.uz saytida chop etish yo'li bilan xabardor qilinadilar. Mazkur Qoidalar tegishli bildirishnomada ko'rsatilgan vaqtdan boshlab o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

Ushbu Qoidalarning mazkur badda ko'zda tutilgan tartibda o'zgartirilishi va/yoki tugatilishi mos tarzda Ishtirokchi tomonidan Oferta aksept qilinishi natijasida yuzaga kelgan Shartnomaga qo'shimcha kelishuv shartlari amal qilishining ham o'zgartirilishi va/yoki tugatilishini anglatadi.

7.4. Ishtirokchi mazkur Qoidaldagi o'zgarishlarga rozi bo'lmasa, u holda yangilanishlar kuchga kirmasidan oldin Aksiyadagi ishtirokidan voz kechishi lozim, aks holda o'zgarishlar Ishtirokchi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

7.5. Aksiyada ishtirok etayotib, Ishtirokchilar quyidagilarga rozilik beradilar:

- Tashkilotchi va Operator, shuningdek, Aksiyaning o'tkazilishi maqsadlarida ular jalb etgan shaxslar o'zaro ma'lumot almashadilar, shu jumladan, Ishtirokchining Aksiyadagi ishtiroki bilan bog'liq ma'lumotlarni (Ishtirokchining shaxsga oid ma'lumotlariga doir axborotlarni va Ishtirokchi tomonidan yo'llangan so'rovlar mazmunini ham) ko'rib chiqadilar;
- Ishtirokchining qo'shimcha roziligisiz va buning uchun qandaydir rag'batlantirish to'lamasdan, Aksiya o'tkazilishidan uchinchi shaxslarni xabardor qilish maqsadlarida ularning ismlari, fotosuratlarini, Tashkilotchi bilan intervyulari tilga olinadi.

Operator Aksiyaning reklama targ'ibotini faqat elektron aloqa tarmoqlari orqali reklama olishga oldindan rozilik bildirgan Abonentlarga nisbatan amalga oshiradi.

7.6. Aksiyada ishtirok etayotib, Ishtirokchi o'zining shaxsga oid ma'lumotlari Tashkilotchi va Operator tomonidan, shuningdek, Aksiyaning o'tkazilishi maqsadlarida ular jalb etgan uchinchi shaxslar tomonidan to'planishi, saqlanishi, uchinchi shaxslarga uzatilishi, ko'rib chiqilishi va Aksiya doirasida Ishtirokchi bilan, shu jumladan SMS-xabarlar almashish kanali va elektron pochta orqali aloqalarni amalga oshirish uchun qo'llanishiga ixtiyoriy roziligini ifodalaydi. Tashkilotchi, Operator va ular jalb etgan shaxslar tomonidan bunday harakatlarning bajarilishi ulardan Ishtirokchining qandaydir qo'shimcha roziligini olishni hamda sanab o'tilgan harakatlarning amalga oshirilishi haqida Ishtirokchini maxsus xabardor qilishni talab etmaydi. Ishtirokchining bunday roziligi Aksiyaning o'tkazilish davri mobaynida va uning Operator qarori bilan tugatilishidan yoki Ishtirokchining Aksiyaga obunani o'chirishidan (ya'ni, Aksiyaning «5050» Raqamiga «STOP» matnli SMS-xabar yuborishidan) keyingi 30 (o'ttiz) kalendar kuni davomida amalda bo'ladi.

Agarda Ishtirokchining shaxsga oid ma'lumotlari Ishtirokchi tomonidan qaytarib olinishi natijasida yo'q qilingan bo'lsa, Tashkilotchi/Operator buning oqibatida Aksiyaning o'tkazilishi bilan bog'liq o'z majburiyatlarining bajarilmasligi uchun javobgar bo'lmaydi.

7.7. Aksiya Ishtirokchisi Aksiyada ishtirok etuvchining shaxsi aloqa xizmatlarini ko'rsatish haqidagi Shartnoma bo'yicha raqam egasining shaxsiga mos kelishini tasdiqlash hamda aloqa xizmatlarini

ko'rsatish haqidagi Shartnomaga ko'ra aloqa xizmatlari to'lovi bo'yicha qarzdorligi yo'qligini tasdiqlash maqsadida ma'lumotlarni tekshirishlari uchun Tashkilotchiga va Operatorga rozilik beradi.

7.8 Tashkilotchi va Operator aloqa xizmatlarining taqdim etilishidagi ehtimoliy kechikishlar yoki nosozliklar uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

8. Aksiyaning sovrin jamg'armasi

Aksiyaning umumiy sovrin jamg'armasi Kontent-provayderning o'z mablag'lari hisobidan shakllantiriladi va quyidagi sovrinlardan tashkil topadi:

- Kunlik sovrin – 500 000 so'm.

- Oylik sovrin – 10 000 000 so'm.